O‘ZBEKISTONNING NEFT-GAZ MANBALARI VA ULARNI SINFLASH HAMDA SERTIFIKATLASH MUAMMOLARI

S.A.Rustamov, N.X.To‘xtaboyev

Maqolada mamlakatimizdagi neft-gaz manbalari, ularning mahsulotlarini sinflash va sertifikatlash muammolari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit sozlar: *gaz, neft, ko‘mir, kon, gaz kondensati.*

В статье приведены данные о нефтегазовых ресурсах Узбекистана, о проблемах классификации и сертификации нефтегазовых продуктов.

Ключевые слова: *газ, нефть, уголь, рудник, конденсат газа*

The article presents data on oil and gas resources in the country as well as the problems of classification and certification of oil and gas products.

Key words: *gas, oil, coal, deposit, gas condensation.*

O‘zbekistonda organik kimyo sanoati boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Organik kimyo sanoatining xom ashyosi, asosan, ko‘mir, neft, gaz, yog‘och chiqitlaridir. Mamlakatimizda, ayniqsa, gaz, ancha katta neft va ko‘mir zaxiralari ham bor.

O‘zbekiston tabiiy gaz, gaz kondensati va neft konlariga boy bo‘lib, ular 5 ta regionga ajratilgan[1]: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-g‘arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg‘ona.

Tabiiy gazlarning asosiy tarkibini (92-96% gacha) metan tashkil etadi. Ularning tarkibida 6% gacha boshqa moddalar (etan, propan, butan va oltingugurt birikmalari hamda uglerod-(IV)-oksidi) bo‘ladi [2].

Sanoatda metandan atsetilen, vodorod, qorakuya, xlorli erituvchilar va boshqalar olinadi. Tabiiy gazlarni qazib olish vaqtida gaz kondensati ham ajralib chiqadi. Gaz kondensati suyuq uglevodorodlarning aralashmasi bo‘lib, undan juda ko‘p alohida uglevodorodlarni ajratib olish mumkin. O‘zbekistonda tabiiy gazlarning katta miqdori Gazli, Sho‘rtan, Surxondaryo viloyati, Muborak va boshqa tumanlardan qazib olinmoqda. O‘zbekistonda har yili 55 mlrd. kubometrdan ortiq tabiiy gaz, 3,5 mln. tonnagacha gaz kondensati qazib olinadi [1].

Organik moddalar ishlab chiqarish sanoatining gigantlaridan biri 1965-yilda qurib ishga tushirilgan “Navoiy azot” ishlab chiqarish birlashmasidir [3]. Unda tabiiy gaz kompleks qayta ishlanadi. Ushbu korxonaning ishga tushirilishi natijasida respublikamizda birinchi marta yangi sanoat mahsulotlari, yuzlab organik sintez mahsulotlarining xom ashyosi hisoblangan atsetilen, atsetaldigid, sirka kislota, metil spirti, akrilonitril va boshqa bir qancha mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Hozirgi paytda bu kombinatda yiliga 41 ming tonna turli rangda bo‘yalgan nitron ishlab chiqarila boshlandi.

Sho‘rtan gaz kompleksi 2002-yilda qurib ishga tushirildi. Unda har yili 125 tonna polietilen, 100 ming tonna oltingugurt va 100000 tonna suyuq propan gazi ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi paytda respublikamizda jami 36 ta kimyo va neft kimyosi sanoati korxonalari, 13 ta yoqilg‘i sanoati korxonalari ishlab turibdi (1-jadval) [1].

1-jadval

O‘zbekistonda qazib olinadigan tabiiy gazning tarkibi

Gaz nomi	Tarkibi va ularning ulushi, % (hajm bo‘yicha)							
	CH_4	C_2H_6	C_3H_8	C_4H_{10}	C_5H_{12} va undan yuqori parafinlar	Noorganik gazlar		
						CO_2	N_2	H_2S
Buxoro viloyati								
Gazli	95,6	2,1	0,2	0,2	0,2	1,0	0,6	-
Qashqadaryo viloyati								
Muborak gaz konlari	88,6	1,5	0,26	0,11	0,33	4,3	5	4,5
O‘rtabuloq	85,8	1,8	0,27	0,15	0,36	5,2	1,4	5,0
Pomuq	89,2	3,8	0,94	0,23	1,72	3,4	0,4	0,08
Qoraqum	89,6	4,0	1,02	0,38	1,44	1,7	1,6	0,25
Zevarda	89,3	3,7	0,74	0,17	1,2	4,2	0,5	0,01
Kultoq	89,2	5,0	0,99	0,52	1,16	2,4	0,54	0,2
Alan	89,2	2	0,87	9,17	1,16	0,4	0,56	0,14
Sho‘rtan	90,5	3,54	1,06	0,47	0,434	2,3	1,584	0,08
Andijon viloyati								
Polvontosh	75,7	7	2,8	3,3	-	0,2	11	-
Xo‘jaobod	81,2	6	1,5	3,8	-	0,5	7	-

Mamlakatda ishlatiladigan jami gazning 55 фоизи sanoatda, 26 фоизи elektr stansiyalarida yoqiladi, 15 фоизи turmush ehtiyojlari uchun va 4 фоизи xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida sarflanadi. Hozirgi kunda po‘latning 90, cho‘yannning 85, sementning 60 va o‘g‘itning 85 фоизи gazdan foydalanib ishlab chiqarilmoqda. Tabiiy gazning barcha tarkibiy qismlaridan kimyo sanoatida keng foydalaniladi [1].

Respublikamizda sanoat miqyosida gaz qazib olish, asosan, 1960-yillardan keyin boshlandi. Foydalaniladigan yirik gaz konlari Buxorodagi: Gazli, Qorovulbozor, Dengizko‘l, Jarqoq, Qashqadaryodagi: Sho‘rtan, Zevarda, Shimoliy va Janubiy Muborak, O‘rtabuloq, Pomir, Qoraqum, Qultoq, Apan va boshqalar bo‘lib, jami 30 dan ortiq kon mavjud. O‘zbekiston 1976-yilga kelib 36,1 mlrd. m^3 gaz ishlab chiqardi. Bu Bolgariya, Chexiya va Slovakiya, Angliyada ishlab chiqariladigan gazlarning hammasini qo‘shib hisoblagandagi miqdoridan ham ortiqdir. Hozirgi paytda respublikamizda Yaponiya, Fransiya, Angliya kabi rivojlangan mamlakatlarni qo‘shib hisoblaganda ham ulardan ko‘proq gaz ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakatimizda tabiiy gazdan ishlab chiqariladigan kimyoviy tola Rossiyadan keltiriladigan toladan 40-50 foiz arzonga tushadi. Gazli, Muborak, Uchqir, Odamtosh, Sho‘rtan kabi tabiiy gaz konlaridan olinayotgan gaz yuqori kondensatligi bilan ajralib turadi. Gaz kondensati organik sintezning asosidir. Uning har tonnasidan 50 kg sun’iy kauchuk, 150 kg plastik massa, 150 kg sun’iy tola, 100 kg erituvchi modda, 400 kg motor yonilg‘isi olish mumkin.

O‘zbekistonda “Sho‘rtanneftgaz” va Sho‘rtan gaz kimyo majmuasida tabiiy gazni qayta ishlash jarayonida qo‘shimcha mahsulot sifatida yiliga 100 ming tonnadan ortiq quyidagi tarkibli propan-butan fraksiyasi hosil bo‘ladi, massasi %: etan – 5,5; propan – 40,1; izobutan – 22,15; n-butan – 28,58; pentanlar – 2,12; azot – 0,13; uglerod dioksid – 0,42.

Neft kimyo sanoati uchun neftni qayta ishlashdan hosil bo‘lgan to‘yinmagan uglevodorodlar saqlovchi gazlar muhim xom ashyodir. Neftni qayta ishlash natijasida qayta ishlash usullariga qarab hosil bo‘lgan gazlarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistonda neftni qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan gazlar tarkibi (o‘rtacha, % da)

Neftni qayta ishlash usullari	Gazlarning tarkibi va ulushi, % (hajm bo‘yicha)							
	H_2	CH_4	C_2H_6	C_3H_8	C_4H_{10}	C_2H_4	C_3H_6	C_4H_8
Suyuq fazali kreking	3,5	45	17,5	13	5,5	2,5	7	4,5
Piroliz	12	56	6	0.5	0.2	17	7,5	4,5
Katalitik kreking	5,5	10	4	18	44	3	9	4,5
Katalitik reforming	9	7	13	37	35	-	-	-

O‘zbekistonda yiliga 6 mln. tonnadan ortiq neft qazib olinmoqda [5]. O‘zbekistonda Farg‘ona neft konlaridan foydalanish, asosan, XX asrning dastlabki yillaridan boshlangan. Dastavval Chimyon (1904), keyinchalik Moylisoy, Selroxa, Neftobod (1934), Andijon neft konlari (1944) ishga tushirildi. Farg‘ona vodiysida 30 dan ortiq neft konlari bor. Bugungi kunda Andijon, Buxoro, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi Polvontosh (1944), So‘x, Xaudag (1944), Lalmikor, Kakaydi (1939), Uchqizil (1940), Sariton (1956), Muborak, Qoraxitoy, Ayzovod, Qorabair va boshqa neft konlaridan neft qazib olinmoqda.

Neft qazib chiqarish yildan-yilga o‘sib bormoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ikkita juda yirik neft koni: Namangandagi Mingbuloq va Qashqadaryodagi Ko‘kdumaloq neft konlari topildi. Ularning har qaysisidan yiliga 5-6 mln. tonna neft qazib olish mumkin. Ushbu konlar bazasida respublikamizda hozircha yakka-yu yagona bo‘lgan Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi (1906) rekonstruksiya qilindi va yiliga 5-6 mln. tonna neftni qayta ishlash qudratiga ega bo‘ldi. Buxoroda (Qorovulbozorda) ham yangi Fransiya texnologiyasi asosida eng zamonaviy neftni qayta ishlash zavodi qurilib, 1997 yilda ishga tushirildi. Bu zavod yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlash qudratiga ega. Har ikkala zavod to‘la quvvat bilan ishlay boshlagach, respublikamizning neft mahsulotlariga bo‘lgan talabi to‘la qondiriladi, chetdan benzin va boshqa neft mahsulotlarini sotib olishga ehtiyoj qolmaydi.

Mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan neft-gaz manbalarini o‘zlashtirish, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda eksport-import jarayonlarida tutgan o‘rnidan kelib chiqib, ularning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasidagi (TIF TN) tovar kodlarini tadqiq etish ushbu sohada bir qator muammolar borligini ko‘rsatdi [6].

TIF TN da neft mahsulotlari 2710 tovar positsiyasida, gaz mahsulotlari 2711 tovar positsiyasida tegishli kod raqamlari bilan berilgan bo‘lib, mavjud kod raqamlari tavsiflari bo‘yicha mamlakatimizdagi neft-gaz manbalari va ulardan olinadigan mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq qamrab ololmaydi, natijada tegishli mahsulotlar uchun davlat bojini to‘g‘ri belgilanmasligi oqibatida mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga, davlat g‘aznasiga jiddiy zarar yetishi mumkin. Ushbu kod raqamlarini chuqur tahlil qilish, ularni belgilashda neft-gaz manbalaridan olinayotgan mahsulotlarning kimyoviy tarkibiga alohida e’tibor qaratib differensiallash eksport-import jarayonlarida boj to‘lovlarini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini yaratadi. Neft-gaz mahsulotlarining tezkor bojxona ekspertizasi usullarini ishlab chiqish, mahsulotlarni sertifikatlashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan spetsifik ko‘rsatkichlar va ularning me’yorlarini belgilab olish orqali takomillashtirilgan kod raqamlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish qayd etilgan muammolarni hal etish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. N.Kattayev. Kimyoviy texnologiya.- T.: Yangi yo‘l poligraf servis. 2008. 316-321 betlar
2. I.R.Asqarov, Y.T.Isayev, A.G‘.Mahsumov, Sh.M.Qirg‘izov. Organik kimyo.- T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.- B. 9-10
3. O.S.Sodiqov, O.Y.Yo‘ldoshev, V.S.Sultonov. Organik kimyo.- T.: O‘qituvchi, 1971
4. A.Abdusamatov. Organik kimyo.- T.: Talqin, 2005
5. Internet ma’lumotlari: www.zionet.uz
6. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан.- Т., 2012

Андижон давлат университети,
2015 йил 4 декабрда қабул қилинган
(Тақризчи: проф. И.Асқаров)